

qatnashish, kino, muzei, teatr, kutubxonalariga tez-tez borib turish, rus tilini o'rganishi maslahat beramiz.

Rus tilidagi bilim darajangizni sayt va ilovalar orqali oshiring, masalan: «Россия для всех» (O'zbekcha), TORFL GO, pushkininstitute.ru «Образование на русском» portali. Rus tili, Rossiya tarixi va qonunchiligi bilimiga oid test topshirisha tayyorgarlik uchun quyidagi saytlardan foydalanish mumkin: testcons.ru, testmigr.rudn.ru

Millatlararo mavzudagi tadbirlarni Komitet po mежнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге, Санкт-Петербургский Дом национальностей, ijtimoiy tashkilotlar o'tkazadi. Bu tadbirlarda qatnashish, Sankt-Peterburgga yaxshiroq moslashib ketish uchun madaniyati va an'analmi bilishni, yangi do'stlar topishni maslahat beramiz.

Siz axborot, bepul maslahat va yordam uchun davlat va ijtimoiy tashkilotlarga murojaat etishingiz mumkin:

Zudlik bilan yordam ko'rsatishning birlashgan raqami – 112 (uy yoki uyali telefondan) – favqulodda holat yuz berganda, hayot va salomatlikka xavf tug'ilganda.

Muhojirlar uchun davlat qo'llovi va xizmatlar

Komitet po mежнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге

сайт: gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/, vk.com/spbmigrant
e-mail: info@kmormp.gov.spb.ru
тел.: 8 (812) 576-28-08

Chet ellik fuqarolar uchun ishonch telefoni: 8 (812) 576-28-67

СПБ ГКУ «Санкт-Петербургский Дом национальностей»

сайт: spbdn.ru, vk.com/domnac_spb
e-mail: domnac@yandex.ru
тел.: 8 (812) 579-00-09

Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области

сайт: 78.mvd.rf/ms
тел.: 8 (812) 573-37-22, 8 (812) 573-30-02

• отдел по вопросам трудовой миграции
ул. Красного Текстильщика, д.15, 8 (812) 318-06-26

• отдел по работе с соотечественниками, беженцами и переселенцами
пр. Римского-Корсакова, д.39, 8 (812) 573-22-92

• отдел миграционного учета, оформления виз и приглашений
ул. Красного Текстильщика, д. 10-12, лит. Д, 8(812) 573-38-25

• отдел оформления разрешений на временное проживание и видов на жительство
ул. Красного Текстильщика, д. 10-12, 8 (812) 383-94-83,
8 (812) 383-94-91

Многофункциональные центры предоставления государственных услуг (МФЦ)

Единая справочная служба МФЦ: 8 (812) 573-90-00
Список МФЦ Санкт-Петербурга: gu.spb.ru/mfc/

**Филиал по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области
ФГУП «Паспортно-визовый сервис» МВД РФ**

сайт: pvsmyd.ru/branches/78
e-mail: obr_spb@pvsmyd.ru
тел.: 8 (812) 703-68-78

Bepul huquqiy yordam

БФ «ПСП-фонд»

сайт: psp-f.org , vk.com/pspfond
Chet ellik fuqarolar uchun ishonch telefoni: 8 (953) 141-31-09

Foydali ma'lumotlar

migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru – «Добро пожаловать в Санкт-Петербург!»: ning muhojirlar uchun internet-resursi Komiteta po mежнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге ning muhojirlar uchun internet-resursi

migrussia.ru – «Миграция и мигранты: информационный портал» (qonunchilikka oid maslahatlar, muhojirlar va ular bilan ishvlovchi mutaxassislar uchun foydali muloqot)

Информационные ресурсы Санкт-Петербургского Дома национальностей



Muhojirlar uchun foydali muloqotlar



<http://spbdn.ru/>



https://vk.com/domnac_spb

Буклет «Полезные советы для трудовых мигрантов»
(на узбекском языке)

Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»

Авторы-составители: Гончарова Д.В., Якимов А.Н.

Редактор: Панич Б.Л.

Тираж 2000 экз.

Изготовлено по заказу СПб ГКУ «Санкт-Петербургский Дом национальностей» при поддержке Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге.




Комитет по межнациональным
отношениям и реализации
миграционной политики
в Санкт-Петербурге



**Sankt-Peterburgga
xush kelibsiz!**

**Mehnat
muhojirlari uchun
foydali maslahatlar**



Sankt-Peterburg
2022

KADRIL DO'STLAR!

Siz mazkur kitobchada Sankt-Peterburgga yaxshiroq moslashib ketishingiz uchun yordam beradigan foydali maslahatlarni topa olasiz! Sizga muvaffaqiyat tilaymiz!

Qonunchilik va muhojirlik hujjatlari

Rossiyaga kelgan chiptangiz va joylashtirish talonini saqlang.

Har doim ozingis bilan pasport, muhojirlik kartasi, registrasiya (muhojirlik qaydiga qoyganlik haqida bildiruv), to'lov haqidagi cheki bilan ishlash uchun patent, tibbiy polisni olib yuring. Ularning yo'qolishi mumkinligini ko'zda tutgan holda kseronusxasini tayyorlatib oling.

Rossiya muhojirlik qonunlariga oid o'zgarishlarni kuzatib boring. Zarur ma'lumonlar izlashda davlat muassasalarining rasmiy saytlaridan foydalaning.

Hujjatlaringizni hech kimga saqlash uchun bermang: ularni olib qo'yishga hech kimning baqi yo'q, shuningdek sizning erkin harakatlanishingizni cheklay olmaydilar. Agar bu ish sodir bo'sha, politisiyaga murojaat eting!

Hujjatlaringizni o'z vaqtida uzaytiring. Registrasiya, muhojirlik kartasi va patentning muddari o'tishi qonunchilik buzilishi sanaladi, buning uchun sizni jarimaga tortishlari yo Rossiyanan chiqarib yuborishlari mumkin.

Muhojirlik qaydi va patent olish

Muhojirlik qaydiga yashaydigan manzilingiz bo'yicha turishingiz zarur, aks holda sizni jarimaga tortishlari mumkin.

Bola necha yosha bo'lishidan qat'iy nazar uni ota-onasi kelgan erda qaydga qo'yish zarur.

Sankt-Peterburgda qonuniy patentni faqat «Паспортно-визовом сервисе» МВД России <https://pvsmvd.ru/branches/78> da rasmiylashtirish mumkin.

Ishlash uchun patentning tayyor bo'lgani va uning haqiqiyligini <https://mvd.rph/сервисы-гум> saytida bilih mumkin.

Patent uchun to'lov har bir to'langan muddatning tugashiga 1 kun qolishiga kechiktirmasdan amalga oshiriladi. To'lovnii ishlash uchun patent olingan sanadan 12 oyga oldingan amalga oshirish mumkin. Agar siz ishlamayotgan bo'lsangiz va Rossiya turish uchun boshqa asosining bo'limasa ham, baribir patentni uzaytirmoq zarur.

Muhojirlik qaydini ishlash uchun patent to'ovi amal qiladigan muddat uchun vaqtida uzaytiring.

Ish

Faqat mehnat sharoiti va ish haqi ko'rsatilgan rasmiy yozma shartnoma bo'yisha ishlang, aks holda sizni aldashlari mumkin.

Ish izlash uchun rasmiy saytlardan foydalaning, masalan, «Работа в России» trudvsem.ru yoki Sankt-Peterburg bo'sh ish orinlari malumotnomasidan - r21.spb.ru

Vositachilarga murojaat etmang – ular sizni aldashlari va tekin ishchi kuchi sifatida foydalanishlari mumkin.

Yodda tuting, faqat patentingizda ko'rsatilgan ixtisos bo'yicha va belgilangan mintaqada ishlappingiz mumkin. Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati – turli mihtaqlar!

Ishlayotgan tashkilotningiz, uning qanday atalishi va manzilini, boshligingizning vazifasi, nasabi, nomi, uning telefon raqamini bilishingiz muhimdir. Bu ma'lumotlar huquqlaringizni himoya etishga togri kelib qolganda asqotib qolishi mumkin.

Pulni sizning nomingizga ochilgan maxsus bank kartasida yoki shaxsan buxgalteriyada hisob-kitob varaqasiga imzo chekib oling. Adar ishda sizdan qarz bo'lishsa, tilxat talab qiling.

Imzolayotgan har bir narsani diqqat bilan o'qing, ularning nusxasini berishni talab qiling. Agar hujjatlarni tushunmasangiz yo ularga rosi bo'imasangiz, imzo chekmang.

Sizning ish joyingiz xavfsiz bo'lishi zarur. Siz kuniga 8 coat va haftasiga 40 soatdan ortiq ishslashga majbur emassiz. Sizning ish haqingiz miqdori to'liq ish bajarganiningizda eng kam ish haqi (MPOT) dan oz bo'imasligi zarur. Sankt-Peterburgda 2022-yilda MPOT 21 500 rublni tashkil etadi.

Agar ish haqi berishni 15 kundan ortiq muddatga kechiktirishsa, siz 4.2 st.142 TK RF ga muvofigi ish beruvchiga ish haqi to'lanmaganligi munosabati bilan ariza yozish huquqiga egasiz. Shuningdek, bunday holatda ish beruvchiga yozma ravishda shikoyat qilishingizni va Государственную инспекцию труда va Прокуратуру ga murojaat etishingizni maslahat beramiz.

Politsiya bilan munosabat

Agar siz jinoyat guvohi yoki qurboni bo'lsangiz, politsiyaga murojaat eting: shaxsan yoki 102 yoki 112 raqamlari orqali (uyali telefondan), sayt - www.mvd.rf

Agar politsiya xodimlari hujjat tekshirish uchun eng yaqin politsiya nuqtasiga borishni so'rashsa, qarindoshlarining yoki do'stlaringizga qo'ngiroq qilib, qaerda turganiningiz va kim bilan gaplashayotganiningizni xabar qilishingizni maslahat beramiz. Politsiyachining ko'krak nishoni (jeton) raqamini eslab oling yo yozib oling, shuningdek xizmat shahodathnomasini ko'rsatishni so'rang va u bilan tanishing.

Yodda tuting: pora berish jinoyat sanaladi.

Politsiyachilarga pul bermang!

Agar sizni tutishsa, siz qo'ng'iroq qilish huquqiga egasiz, himoyachi, agar rus tilini yomoh bilsangiz, tarjimon talab qilishingiz mumkin. Albatta utilganlik yoki ma'muriy huquqbazarlikka oid protocol nusxasini berishni so'rang.

Agar sizni noqonuniy tutgan bo'lishsa yoki politsiyada noqonuniy ushlab turishsa 112 yoki 102 raqamiga qo'ngiroq qiling, shuningdek, Общественную наблюдательную комиссию (ОНК) va Уполномоченному по правам человека в Санкт-Петербурге ga murojaat eting.

Yodda tuying, sud qarorigacha sizni 48 soatdan ortiq tutib turish mumkin emas. Politsiya xodimlari jarima yo boshqa to'lovlar uchun

sizning hujjatlaringizni olib qo'yish huquqiga ega emaslar – bu noqonuniy! Jarima faqat sud yoki muhojirlilik masalalari bo'yicha bo'lim boshligi qaroriga ko'ra chiqariladi.

Agar politsiya xodimlari sizning huquqlaringizni buzishsa, siz 112 yoki 02 raqamlariga yoki МВД РФ ning «Ishonch tarmog'i»ga: 8 (800) 222-74-47 yoki ГУ МВД по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области ning «Ishonch tarmog'i»ga: 8 (812) 573-21-81 qo'ng'iroq qilib, yordam so'rab murojaat etishingiz mumkin.

Agar sizni Центр временного содержания иностранных граждан ga joylashtirgan bo'lsalar, hujjatlaringizni tezroq tiklashga harakat qiling. Albatta mamlakatingizning konsulligi bilan bog'laning yoki jamoat tashkilotlariga bepul huquqiy yordam ko'rsatishni so'rab murojaat eting.

Ijtimoiy va tibbiy yordam

Tez tibbiy yordam olish uchun uyali telefondan 103 yoki 112 raqamlariga qo'ng'iroq qiling. Hayotingiz va salomatligingiz uchun xavf tug'ilgan holatda, hatto sizda tibbiy polis va hujjatlar bo'limagan taqdirda ham bepul tibbiy yordam ko'rsatishlari shart!

Tibbiy yordam olishda muammolar yuzaga kelgan holatda Министерства здравоохранения ning «Ishonch tarmog'i»ga murojaat qiling: 8 (812) 635-55-77. Комитета по здравоохранению Санкт-Петербурга: ning axbotot-ma'lumot xizmati: 8 (812) 63-555-64.

Rossiyada doimiy yashayotgan chet elliklar - yashash uchun huquqqa egalar, fuqaroligi yo'q shaxslar, qochqinlar ijtimoiy qo'llov olishlari mumkin. Ijtimoiy qollov olish uchun aholini ijtimoiy himoya qilish davlat maqomotlariga murojaat eting.

Bolalar ta'limi

Chet ellik fuqarolar bolalari davlat bolalar bog'chalari va davlat maktablariga bepul qatnash huquqiga egadirlar. Maktab yoshidagi bolaning ota-onalari qonunga ko'ra uni mакtabga berishga majburdirlar.

Bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun registrasiyadan o'tilgan manzil bo'yicha МФЦ ga murojaat etish zarur. Maktabga joylashtirish uchun rayon maorif bo'limiga yoki rayoningizdagagi maktabga murojaat eting.

Agar sizga maktabda rad etishsa, rayon maorif bo'limiga murojaat eting, u erda siz qayddan o'tgan rayondagi maktablardan biridan joy ajratishlari shart.

Agar bola rus tilini yomom bilsa, rus bolalar bilan qiyimchilik bilan gaplasha olsa, siz ijtimoiy tashkilotlarga yordam so'rab murojaat etishingiz mimkin. Sankt-Peterburgda muhojirlar bolalariga rus tilini o'rganishda «Дети Петербурга» tashkiloti yordam beradi: detipeterburga.ru

Madaniyat va rus tili

Rossiyaga tezroq moslashib olish uchun, mahalliy aholi bilan ko'proq muloqotda bo'lish, do'stlar orttirish, bayramlarda